JIZZAX VILOYATI YANGIOBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 4-mart | 43-3-54-Q/25 | Yangiobod tumani hokimligi

Yangiobod tumani Havotog‘ QFY hududidan o‘tuvchi 4M – 34 avtomobil yo‘liga yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-sonli, 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli hamda 2022-yil 12-iyuldagi “2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-316-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, tuman Ichki ishlar bo‘limining 2025-yil 9-yanvardagi 43/13-sonli xatini inobatga olib “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1.Tuman Ichki ishlar bo‘limining 2025-yil 9-yanvardagi “Havotog‘ QFY hududidan o‘tuvchi 4M-34 “Toshkent-Dushanbe” avtomobil yo‘lining 174-175-km oralig‘iga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida”gi 43/13-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Havotog‘ QFY hududidan o‘tuvchi 4M-34 “Toshkent-Dushanbe” avtomobil yo‘lining 174-175-km oralig‘iga 3.27 **“To‘xtash taqiqlangan”** yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3.Tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi (Z.Turdiqulov) tuman IIB YHXG katta inspektori (T.Jo‘rayev) bilan birgalikda **3.27 “To‘xtash taqiqlangan”** yo‘l belgisini belgilangan tartibda o‘rnatish va harakat havfsizligi ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (R.Abdug‘aniyev) tuman mahalliy byudjetidan yo‘l belgisini o‘rnatish uchun kerakli bo‘lgan mablag‘ni ajratilishini ta’minlasin.

5.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.To‘rayev hamda tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Sh.Axmedov zimmalariga yuklatilsin.

6.Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **I.Qarshiboyev**